



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

BUXORO AMIRLIGIDA AMIR HAYDAR DAVRIDA SAMARQAND BEKLGIDA IJTIMOIY-IQTISODIY ISLOHATLAR TARIXI

Mamanov Mehriddin Dusmurot o'g'li

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Buxoro amirligida XVIII-XIX- asrlarda Samarqand bekligini ta'riflar ekanmiz avvalo, mang'itlar sulolasi vakili Amir Haydar davrida Samarqand oldingi nufuzini qayta tiklashini kurishmiz mumkun,ijtimoiy-iqtisodiy islohatlar tufayli Samarqand bekligi Buxoro amrligining markaziy shahriga aylandi.Shahar iqtisodiy hayotida bir nechta sohalarida katta o'zgarishlar buldi.Amir Haydarning mana shu islohatlari tahlili asosida shahar iqtisodiy hayotini tavsiflash mumkin bo'ladi.

Kalit so'zlar: Amir Haydar, Samarqand bekligi, Zarafshon vohasi, tumanlar, , ma'muriy boshqaruv, bek, amlokdor, Ko'ktosh..

ИСТОРИЯ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ РЕФОРМ В САМАРКАНДСКОМ БЕКСТВЕ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ ЭМИРА ХАЙДАРА В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ

Маманов Мехриддин Дусмурот угли

Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова, базовый докторант

Аннотация

Характеризуя Самаркандское бекство Бухарского эмирата в XVIII–XIX веках, прежде всего следует отметить, что в период правления представителя мангытской династии эмира Хайдара Самарканд сумел восстановить своё прежнее влияние и авторитет. Благодаря социально-экономическим реформам Самаркандское бекство стало одним из важнейших центральных городов Бухарского эмирата. В экономической жизни города произошли значительные изменения в ряде сфер. На основе анализа реформ, проведённых эмиром Хайдаром, можно охарактеризовать особенности развития экономической жизни Самарканда.

Ключевые слова: эмир Хайдар, Самаркандское бекство, Зарафшанская долина, туманы, административное управление, бек, амлоктор, Кукташ.

HISTORY OF SOCIO-ECONOMIC REFORMS IN THE SAMARKAND BEKDOM DURING THE REIGN OF AMIR HAYDAR IN THE BUKHARA EMIRATE

Mamanov Mehriddin Dusmurot o'g'li

Samarkand State University named after Sharof Rashidov, Doctoral student

Abstract

When describing the Samarkand Bekdom of the Bukhara Emirate in the eighteenth and nineteenth centuries, it is important to note that during the reign of Amir Haydar, a representative of the Manghit dynasty, Samarkand regained its former prestige and influence. Owing to socio-economic reforms, the Samarkand Bekdom became one of the major central cities of the Bukhara Emirate. Significant changes occurred in several sectors of the city's economic life. Based on the analysis of the reforms carried out by Amir Haydar, it is possible to characterize the main features of Samarkand's economic development during this period.

Keywords: Amir Haydar, Samarkand Bekdom, Zarafshan Valley, districts, administrative administration, bek, amlokdor, Ko'ktosh.

Mang'itlar sulolasining asoschisi va birinchi hukmdori Muhammad Rahimxon 1756-yil 12-dekabrda Buxoro amirligi taxtiga rasmiy ravishda o'tirishi bilan Buxoroda Mang'itlar sulolasi hokimiyatga keldi. Muhammad Rahimxon taxtga o'tirgach, o'z hokimiyatiga siyosiy tus berish maqsadida Samarqandga yo'l oldi. Bu davr manbalarida shahar "Dorus-saltana Samarqand" deb tilga olinadi.

1800-yilda Amir Shohmurod vafot etib, Buxoro taxtiga uning o'g'li Amir Haydar (1800–1826 yy.) o'tirdi. Mang'itlarning uchinchi amiri, Amir Shohmurodning birinchi farzandi Haydar 1778-yilda Buxoroda dunyoga kelgan. Amir Haydarning taxtga ko'tarilish marosimi Samarqandda bo'lib o'tgan. 1216-hijriy yil uning muhrida tarix-xronogramma sifatida aks ettirilgan [1].

Samarqandda Ko'k toshga o'tirish an'anasi XIX asrning birinchi yarmida ham davom etdi.

Shohmurodning o'g'li, onasi tomonidan Ashtarxoniy Abulfayzxonning nabirasi bo'lgan Amir Haydar oq kigizda oliy hukmdor etib ko'tarilgan va Samarqandda Ko'k toshga o'tqazilib, rasman hukmdor deb tan olingan. Bu voqeani XIX asrning 20-yillarida Buxoroda bo'lgan Y.K. Meyendorf o'z ma'lumotlarida keltirib o'tadi. Uning qayd etishicha, oliy hukmdor taxtga o'tirish marosimini o'tkazish uchun Samarqandga borishi va Mirzo Ulug'bek madrasasida turgan Ko'k toshga o'tirishi lozim edi: "U (Ko'k tosh) to'rtburchak shaklida bo'lib, har tomonining uzunligi bir yarim sarjin, qalinligi bir arshindir. Bu toshni oq kigiz yopib turadi. Xon o'tirgach, uchlarini ulamolar, fuqarolar, fozillar va sayidlar ushlagan bu kigizni uch marta ko'taradilar" [2].

Amir Haydar o'z hukmronligining dastlabki yillarida Buxoro hududining yaxlitligini saqlash, Zarafshonning yuqori oqimi sarhadlari, Shahrisabz va Miyonkol yerlarini qo'lda saqlab qolish uchun kurash olib bordi. O'ratepani vaqtincha o'ziga bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi.

Amir Haydarning hukmronligi davrida amirlik hududlariga Turkmanistonning sharqiy qismi, Marv shahri, hozirgi Afg'onistonning bir qismi, Tojikistonning Hisor, Xo'jand, O'ratepa, Panjikent hududlari, Urgut va Zarafshonning yuqori tomonidagi kichik tog'li o'lkalar ham kiritilgan edi.

Buxorolik mashhur tarixchi Mirzo Salimbek (1850–1930) o'zining "Tavorixi muttaqaddimin va muttaaxirin" asarida yozishicha, Amir Haydar markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun Samarqandga Davlat qo'shbegini, Jizzaxga Aflotun to'qsobani, O'ratepaga Mullo Ernazarbiyni, keyinchalik Marvga Yorlaqabiyni hokim qilib tayinlagan [3].

Amir Haydar davrida markaziy va mahalliy boshqaruvda islohotlar o'tkazilib, bekliklarda boshqaruv bek va oqsoqollar orqali amalga oshirilgan. Shuningdek, amir tomonidan yuborilgan bekka katta imtiyozlar berilgan. Amir Haydarning soliq sohasidagi islohotlariga qarshi norozilik harakatlari ham bo'lgan.

Tarixiy manbalarda yozilishicha, 1821–1825-yillarda Amir Haydarning soliq siyosatiga qarshi Samarqand bekligida xitoy-qipchoqlar ko'targan Miyonkol qo'zg'olonining avj olishida Qo'qon va Xiva xonlari ham manfaatdor bo'lib, Buxoro amirligining ichki siyosatini zaiflashtirmoqchi bo'lganlar [4]. Shuningdek, har ikkala xonlik hukmdorlari Buxoro amirligini o'zlariga siyosiy va iqtisodiy jihatdan qaram qilmoqchi bo'lganlar.

Amir Haydar hukmronligi davrida Samarqandda uning ukasi Husayinbiy hokimlik qilayotgan edi. 1802-yilda Husayinbiy qo'zg'olon ko'taradi. Bu qo'zg'olonne bostirish uchun Amir Haydar katta qo'shin bilan keladi va qo'zg'olon bostirilib, Samarqandga Davlat qo'shbegi hokim etib tayinlanadi [5].

Miyonkoldan keladigan katta miqdordagi soliqlarning to'xtashi o'z-o'zidan Buxoro xazinasi salmog'ining kamayishiga olib keldi. Buxoro qo'shinlarining katta qismi doimiy ravishda qo'zg'olonne bostirish bilan mashg'ul bo'lganidan foydalangan qo'shni davlatlar uning chegara hududlariga muntazam hujumlar uyushtirib turishdi. Miyonkoldan tashqari Samarqand va Urgut aholisi ham turli sabablarga ko'ra qo'zg'olon ko'tardilar. Katta qiyinchiliklar bilan Amir Haydar bu hududlarni qisqa muddatga o'ziga qayta bo'ysundirdi. Shahrisabz ham Amir Haydarga qisqa muddatga tobe bo'ldi, xolos. Amir Haydar o'z xatlarida Shahrisabz kenagaslarini Buxoro hukmdorlarining dushmani deb ataydi [6].

Amir Haydar uchun Marv vohasi aholisi ham ancha mashaqqat tug'dirdi. Buning sababi vohadagi suvsizlik muammosi edi. Shohmurod hukmronligi davrida Murg'ob to'g'oni buzilgan edi. Buning ustiga Xiva xoni Muhammad Rahimbiy (1806–1825 yy.) 1819-yildan boshlab vohaga ketma-ket yurishlar tashkil qilib, nihoyat 1822-yilda uni o'z tasarrufiga kiritdi [7].

Amir Haydar hozirgi Afg'onistonning shimoliy viloyatlarida ancha muvaffaqiyatlarga erishdi. Maymana, Badaxshon va Qunduz bilan birga Balx viloyati ham 1850-yilgacha Buxoro tasarrufiga bo'lgan. O'z navbatida, Amir Haydar Shujo' al-Mulk — Temurshoh Durroniyning o'g'li bilan do'stlik aloqalarini o'rnatgan edi. Ammo Qo'qon va Xiva xonlari bilan Amir Haydarning munosabatlari ancha taranglashib qoldi. Shu sharoitda Amir Haydar hatto Turkiya sultoni Mahmud II ga yordam so'rab murojaat qilgan va uning itoatiga o'tishga tayyor ekanini ham ma'lum qilgan [8]. Bu voqealar Amir Haydar hukmronligining so'nggi yillari Buxoro amirligi uchun naqadar murakkab va og'ir bo'lganligini ko'rsatadi. Tarixchi Muhammad Yoqub Buxoriy ibn Amir Doniyolning "Turkiston al-muluk" asarida ta'kidlanishicha, Amir Haydar boshqa mang'it hukmdorlaridan farqli ravishda o'z qo'shinidagi askarlar va soliq yig'uvchilarga muntazam ravishda yuqori maosh to'lagan hamda ularga har yili ikki marotaba sarupo ulashgan [9]. Shuningdek, amir o'z hukmronligi davrida har yili davlat xazinasidan 12 ming nafar g'arib, miskin va mullalarga katta miqdorda mablag' ajratgan [10]. Buxorolik mashhur tarixchi olim va davlat arbobi Ahmad Donish (1827–1897) o'zining "Tarixi saltanati xonadoni mang'itiya" asarida yozishicha, Amir Haydar hukmronligi davrida Buxoroda ilm-fan, ayniqsa tarix va islom ilmlari sezilarli darajada rivojlangan. Amir

Haydar Istanbul, Kobul va boshqa yirik shaharlardan madrasalarda foydalanish uchun ko'plab qo'lyozma kitoblarni olib kelgan hamda ulardan nusxalar ko'chirtirgan. Uning o'zi ham muntazam ravishda 400–500 nafar mahdumzodaga (talabaga) turli madrasalarda saboq bergan. Bundan tashqari, Amir Said Haydar hanafiya mazhabiga oid “Al-favoid al-alfiya” nomli asarni ham yozgan [11].

Samarqand bekligi XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligining ikkinchi eng muhim savdo va hunarmandchilik markazi hisoblangan. 1820-yilda A.F. Negri missiyasi tarkibida Buxoroda bo'lgan Y.K. Meyendorfnings yozishicha, bu davrda Samarqandda 50 ming kishi yashagan. Qiyoslash uchun ta'kidlash joizki, XIX asr boshlarida Buxoro amirligida taxminan 2 million aholi, poytaxt Buxoro shahrida esa 60 ming kishi istiqomat qilgan. XIX asr o'rtalarida Buxoro amirligi bir necha viloyatlar va beklklarga bo'lingan bo'lib, amirlikdagi eng yirik Buxoro va Samarqand viloyatlari tumanlar hamda boshqa kichik ma'muriy birliklarga ajratilgan. Samarqand viloyati va shahrini amir tomonidan tayinlangan hokim boshqargan. Manbalarda XVIII asr o'rtalaridagi Samarqand haqida quyidagi ma'lumotlar uchraydi: “O'rta Osiyoning bir vaqtlar musulmon Sharqining madaniyat va siyosat markazi bo'lib o'tgan va chindan ham “Samarqand firdavsmonand” sifatiga arziydigan darajada bezangan Samarqand keyingi davrlarda buzilib, quruq bir cho'lga aylangan edi”.

Xulosa qilib aytganda, Mang'itlar sulolasi davrida Samarqand shahri aholisi asta-sekinlik bilan qayta tiklanib va ko'payib borgan. XIX asrning 40-yillarida shaharda taxminan 25–30 ming kishi istiqomat qilgan. Samarqand poytaxt bo'lmasa-da, oliy hukmdorlarning Ko'k toshga o'tirish rasmiy marosimi o'tkaziladigan markaz sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolgan. Shunday qilib, Samarqand shahri 1756–1868-yillar oralig'ida Buxoro amirligi tarkibidagi muhim siyosiy, iqtisodiy va madaniy markaz sifatida taraqqiy etgan. Mang'itlar sulolasi vakillari va shahar hokimlari Samarqandni rivojlantirish va obodonlashtirish ishlariga munosib hissa qo'shganlar. Yuz yildan ortiq davom etgan ushbu davrda, ayniqsa Amir Shohmurod va Amir Haydar hukmronligi yillarida shahar qiyofasi sezilarli darajada o'zgargan va Eski shaharning bugungi ko'rinishiga aynan o'sha davrda asos solingan. Umuman olganda, O'rta Osiyoning qulay geografik hududida joylashgan Samarqand shahri Buxoro amirligining muhim siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazi hisoblangan. Siyosiy nuqtai nazardan Samarqand Buxoro amirlariga “oliy hukmdor” maqomini beruvchi marosim markazi bo'lsa, boshqa tomondan ichki va tashqi savdo, ishlab chiqarish hamda ilm-fan rivojlangan yirik markaz sifatida ham alohida ahamiyat kasb etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xumuliy. Ta'rix-i Xumuliy // Qo'lyozma, O'zb FA ShI fondi. — № 37/VI. — 272a–273b varaq.
2. Meyendorf E.K. Puteshestviye iz Orenburga v Buxaru. — Moskva, 1975. — S. 94.
3. Mirzo Salimbek. Tavorixi muttaqadamin va muttaaxirin / Fors-tojik tilidan N. Yo'ldoshev tarjimas. — Buxoro, 2003. — B. 292–297.
4. Muhammad Ya'qub ibn Amir Doniyol. Tarixi amironi mang'it // Qo'lyozma, O'zR FA ShI QF. — № 2726. — 8b varaq.
5. Muhammad Ya'qub ibn Amir Doniyol. Tarixi amironi mang'it // Qo'lyozma, O'zR FA ShI QF. — № 2726. — 2b varaq.
6. Иванов П.П. Восстание Китай-кипчаков в Бухарском ханстве 1821–1825 гг.: Источники и опыт их исследования. — Москва, 1937. — С. 36–43, 53–81, 84–86; Семенов А.А. Очерк устройства центрального административного управления Бухарского ханства позднейшего времени // Материалы по истории таджиков и узбеков Средней Азии. — Вып. 2. — Сталинабад, 1954. — С. 14.
7. Вяткин В.Л. Каршинской округ. Организация в нем войска и события в период 1215–1217 (1800–1803) годов // Известия Средне-Азиатского отдела Государственного русского географического общества. — Т. 18. — 1928. — С. 12.
8. Zamonov A., Egamberdiyev A. Buxoro amirligi tarixi. — Toshkent: Tamaddun nashriyoti, 2022. — 182 b.
9. Материалы по истории туркмен и Туркмении // XVI–XIX вв. Иранские, бухарские и хивинские источники / Под ред. В.В. Струве, А.К. Боровкова, А.А. Ромашкевича и П.П. Иванова. — Т. 2. — М.; Л., 1938. — С. 414–418, 423–425.
10. Rajabov Q. Amir Haydar yohud amiri Sayyid // Buxoro mavjlari. — Buxoro, 2006. — № 4. — B. 42.
11. Donish Ahmad. Tarixi saltanati xonadoni mang'itiya // Qo'lyozma, O'zR FA ShI. — № 1987. — 79 varaq.